

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**YO'NALISHSIZ TAKSILAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH CHORA-TADBIRLARI
TO'G'RISIDA**

Yo'lovchilar tashish transportini rivojlantirish sohasida yagona texnika siyosatini amalga oshirish doirasida, yo'nalishsiz taksilar faoliyatini tartibga solish, ular tomonidan yo'lovchilar tashish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini va xavfsizligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Yo'nalishsiz taksilar uchun yagona tanish belgilari va ularning ishlarini tashkil etishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi **nizom** 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va 2012-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritilsin.

2. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi:

"O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi, "O'zstandart" agentligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda litsenziyalanadigan yo'nalishsiz taksilarga amaldagi texnik talablar va standartlarga javob beradigan bir turdag'i hisoblagichlar (taksometrlar) o'rnatish bo'yicha bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin;

hisoblagichlar (taksometrlar) va tanish belgilarini ishlab chiqarish (yetkazib berish) bo'yicha yuridik shaxslarni tanlov asosida tanlab olsin;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda yagona tanish belgilari bilan jihozlanmagan, tashqi va ichki ma'lumotlarga ega bo'limgan yo'nalishsiz taksilarda yo'lovchilar tashish faoliyatini amalga oshirish yuzasidan javobgarlik belgilash to'g'risida ikki oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin;

Toshkent shahri va Toshkent viloyati hokimliklari huzuridagi Yo'lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamentlari bilan birgalikda 2012-yil 1-yanvardan boshlab yagona tanish belgilari bilan jihozlanmagan, tashqi va ichki ma'lumotlarga ega bo'limgan yo'nalishsiz taksilarga litsenziyalar berilishini taqiqlasin;

ikki hafta muddatda manfaatdor vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda ushbu qarorning talablarini va topshiriqlarini amalda bajarish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi:

yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan yo'nalishsiz taksilarga berish uchun davlat raqami belgilarining maxsus seriyasini ajratsin;

ommaviy axborot vositalarida yo'nalishsiz taksilarga beriladigan davlat raqami belgilari to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 2012-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatda tashuvchilar, mahalliy budget va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar mablag'lari hisobiga yo'nalishsiz taksilarning maxsus jihozlangan to'xtash joylari qurilishini (barpo etilishini) ta'minlasinlar.

5. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi (Abduvaliyev), Toshkent shahri va Toshkent viloyati hokimliklari huzuridagi Yo'lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamentlari Ichki ishlar vazirligi (Matlyubov), Davlat soliq qo'mitasi (Parpiyev) bilan birgalikda:

yo'nalishsiz taksilar texnik holati va asbob-uskunalarining harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar, tashqi va ichki ma'lumotlarga ega bo'lish talablariga muvofiqligini nazorat qilish bo'yicha muntazam ravishdagi qo'shma reyd tekshiruvlarini faollashtirsinlar;

avtotransport vositalari egalari o'rtasida yo'nalishsiz taksilar ishiga joriy etilayotgan talablar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun, shu jumladan yo'nalishsiz

taksilarda yo'lovchilar tashish sohasida yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar to'g'risida keng tushuntirish ishlarini amalga oshirsinlar.

6. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining **2-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlariga qo'shimchalar va o'zgartish kiritilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosarlari B.A. Xo'jayev va U.U. Rozukulov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2011-yil 18-may,
139-son

Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 18-maydagi 139-son **qaroriga**
1-ILOVA

Yo'nalihsiz taksilar uchun yagona tanish belgilari va ularning ishlarini tashkil etishga qo'yiladigan talablar to'g'risida

NIZOM

I. Umumiyl qoidalar

1. Yo'nalihsiz taksilar uchun yagona tanish belgilari va ularning ishlarini tashkil etishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizom (keyingi o'rinnlarda nizom deb ataladi) O'zbekiston Respublikasi hududida yo'nalihsiz taksilarning tashqi ko'rinishiga va ichki ma'lumotlar bilan jihozlanishiga, shuningdek yo'nalihsiz taksilarning haydovchilariga nisbatan yagona talablarni belgilaydi.

Ushbu Nizom haydovchilari yo'lovchilarni tashish hamda ularning yo'lovchi so'ragan yo'nalihsiz bo'yicha bagajini tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan yengil avtoreyert vositalarining (yo'nalihsiz taksilardan tashqari) barcha turlariga tatbiq etiladi.

II. Tushunchalar va atamalar

2. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar va atamalardan foydalilanildi:

yo'nalihsiz taksi — yo'lovchilarning buyurtmanomalariga ko'ra hisoblagich (taksometr) ko'rsatkichi bo'yicha haq to'lash hisobiga yo'lovchilarni va ularning bagajini tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan avtoreyert vositalasi;

yo'nalihsiz taksilarning maxsus jihozlangan to'xtash joyi — ma'lumotlar ko'rsatkichlari bilan jihozlangan, tegishli yo'l belgilari qo'yilgan hamda yo'lovchilarni o'tqazish (tushirish) va yo'nalihsiz taksilarning to'xtab turishi uchun mo'ljallangan, ko'chalarning yo'lovchi yurmaydigan qismidagi maxsus maydoncha;

hisoblagich (taksometr) — yo'lovchi boradigan manzilning uzoqligini hisobga olishni va qiymatini hisob-kitob qilishni ta'minlaydigan qurilma;

litsenziya kartochkasi — yo'lovchilar tashishda foydalilanildigan avtoreyert vositalasi uchun belgilangan tartibda litsenziyalovchi organ tomonidan beriladigan yo'nalihsiz taksilarda yo'lovchilar tashishni amalga oshirishga ruxsatnomasi (huquq).

III. Yagona tanish belgilari

3. Tashqi va ichki ma'lumotlar bilan jihozlash belgilari yo'nalihsiz taksilar uchun yagona tanish belgilari hisoblanadi.

4. Yagona tanish belgilari transport oqimida avtoreyert vositasining ajralib turishini va tanilishini ta'minlash uchun mo'ljallangan hamda ular yo'nalihsiz taksilarda yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi barcha tashuvchilar uchun majburiy hisoblanadi.

5. Yo'nalihsiz taksilarni tashqi ma'lumotlar bilan jihozlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) avtoreyert vositasining tepasiga o'rnatilgan to'q sariq rangli fonarga "TAXI" tanish belgisini o'rnatish (Nizomga **1-ilova**);

shaxmat tartibida joylashtirilgan qora kvadratlardan iborat bo‘lgan kompozitsiya va avtotransport vositasining oldingi eshiklaridagi “T” harflari (Nizomga [2-ilova](#));

avtotransport vositasining oldingi eshiklaridagi yuridik shaxs — tashuvchining nomi;

b) yo‘nalishsiz taksilar uchun mo‘ljallangan maxsus seriyadagi avtotransport vositasining davlat raqami belgisi;

v) yo‘nalishsiz taksilar sifatida ishslashga sariq rangli, Toshkent shahri uchun — “fil suyagi” rangidagi avtotransport vositalari qo‘yiladi. Yo‘nalishsiz taksilarni talab qilinadigan rangga bo‘yash avtotransport egasi tomonidan, texnika xizmati ko‘rsatish stansiyalarida amalga oshiriladi.

6. Yo‘nalishsiz taksilarni ichki ma’lumotlar bilan jihozlash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

old oynaning yuqoridaq o‘ng burchagiga joylashtirilgan yashil rangli yoritish chirog‘i;

avtotransport vositasining davlat raqami belgisi haydovchining familiyasi, ismi, otasining ismi va fotosurati, ish vaqtining boshlanishi va tugashi, yo‘lkira qiymati (so‘mlarda), tashuvchining manzili va telefon raqami, litsenziya kartochkasining raqami va amal qilish muddati to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek majburiy sug‘urta qilinganlik haqidagi ma’lumot ko‘rsatilgan ma’lumotlar tablichkasi. Tablichka avtotransport vositasi priborlari paneliga, yo‘lovchilar bemalol o‘qiy oladigan holatda o‘rnatalidi;

hisoblagich (taksometr);

belgilangan tartibda sotib olinadigan va foydalaniladigan radioaloqa vositasi.

IV. Yo‘nalishsiz taksilarga qo‘yiladigan talablar

7. Yo‘nalishsiz taksi sifatida foydalaniladigan har bir avtotransport vositasi texnik jihatdan soz holatda bo‘lishi va avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalarida belgilangan talablarga muvofiq bo‘lishi, shuningdek quyidagi talablarga javob berishi kerak:

ushbu Nizomning [5](#) va [6-bandlarida](#) belgilangan yagona tanish belgilarining mavjud bo‘lishi;

soz holatdagi plombalangan spidometr jihozlarining, belgilangan tartibda davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan nazorat-kassa mashinasining, shuningdek to‘lovlarni bank plastik kartochkalaridan qabul qilib olish uchun hisob-kitob terminalining mavjud bo‘lishi;

yo‘nalishsiz taksi texnik holati va jihozlarining yo‘l harakati xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablari muvofiq bo‘lishi.

Yo‘nalishsiz taksi belgilangan talablarga muvofiq bo‘lmagan taqdirda ushbu avtotransport vositasi uchun litsenziya kartochkasining amal qilishini to‘xtatish tarzidagi ta’sir ko‘rsatish choralar qo‘llanadi.

V. Yo‘nalishsiz taksilar haydovchilariga qo‘yiladigan talablar

8. Yo‘lovchilar tashish uchun mo‘ljallangan yo‘nalishsiz taksilarni boshqarishga haydovchilik guvohnomasida “V” ruxsat belgisi bo‘lgan, 21 yoshga to‘lgan, tibbiy ko‘rikdan o‘tgan va kamida uch yillik haydovchi stajiga ega bo‘lgan shaxslar qo‘yiladi.

9. Yo‘nalishsiz taksilarning haydovchilari yo‘nalishda ishlayotganda tegishli litsenziya kartochkasiga hamda yo‘lga chiqishdan oldin avtotransport vositasining belgilangan tartibda texnik ko‘rikdan va haydovchilarning tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida belgilar qo‘yilgan yo‘l varaqasiga ega bo‘lishi kerak.

10. Haydovchi yo‘lovchilarni yo‘nalishsiz taksiga o‘tqazishni va undan tushirishni yo‘nalishsiz taksilarning maxsus jihozlangan to‘xtash joylarida, tegishli harakatdagi tarkibning to‘xtashiga ruxsat berilgan ko‘cha-yo‘l shoxobchalari uchastkalarida hamda yo‘nalishsiz taksilar yo‘lovchilar buyurtmalari bo‘yicha beriladigan joylarda amalga oshiradi.

11. Yo‘nalishsiz taksi haydovchisining belgilangan talablarga nomuvofiqligi aniqlangan hollarda haydovchiga nisbatan qonun hujjatlarida nazardautilgan intizomiy yoki ma‘muriy ta’sir ko‘rsatish choralar qo‘llaniladi.

VI. Ushbu Nizom talablariga rioya etilishini nazorat qilish

Oldingi tahririga qarang.

12. O‘zbekiston avtomobil transporti agentligi ushbu Nizomning quyidagi qismi talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

(12-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-ton)

13. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ushbu Nizom talablariga rioya etilishini: yo‘nalishsiz taksilar uchun davlat raqami belgilarining maxsus seriyasi ajratilishi yuzasidan; *Oldingi tahrirga qarang.*

yo‘nalishsiz taksilarda hisoblagichlar (taksometrlar), “TAXI” tanish belgilari, shuningdek amaldagi texnik reglamentlarga yoki standartlarga muvofiq radioaloqa vositalari mavjudligi yuzasidan;

(13-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-martdagи 45-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2014-y., 10-son, 105-modda)

yo‘nalishsiz taksi texnik holati va jihozlarining yo‘l harakati xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligi yuzasidan;

yo‘lovchilar tashish uchun mo‘ljallangan yo‘nalishsiz taksilarni boshqarishga haydovchilik guvohnomasida “V” ruxsat belgisi bo‘lgan, 21 yoshga to‘lgan, tibbiy ko‘rikdan o‘tgan va kamida uch yillik haydovchi stajiga ega bo‘lgan shaxslarning qo‘yilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi.

14. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari yo‘nalishsiz taksilarning maxsus jihozlangan to‘xtash joylarini qurish (barpo etish) yuzasidan ushbu Nizom talablariga rioya etilishini nazorat qiladilar.

Oldingi tahrirga qarang.



15. Ushbu Nizom talablariga rioya etilishini nazorat qilish bo‘yicha ishlarni umumiylu muvofiqlashtirib borish O‘zbekiston avtomobil transporti agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

(15-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-ton)

Yo‘nalishsiz taksilar uchun yagona tanish belgilari va ularning ishlarni tashkil etishga qo‘yiladigan talablar
to‘g‘risidagi **nizomga**

1-ILOVA

“TAXI” tanish belgisining tasviri va o‘lchamlari (mm)




Oldingi tahrirga qarang.

To‘q sariq rangli fonar texnik reglamentlarga yoki standartlarga muvofiq belgilangan tartibda tayyorlanadi.

(1-ilovali O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-martdagи 45-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2014-y., 10-son, 105-modda)

Yo‘nalishsiz taksilar uchun yagona tanish belgilari va ularning ishlarini tashkil etishga qo‘yiladigan talablar
to‘g‘risidagi **nizomga**
2-ILOVA

**Yo‘nalishsiz taksilarning oldingi eshiklariga chiziladigan qora kvadratlar va “T” harfidan
iborat kompozitsiyaning tasviri va o‘lchamlari (mm)**



Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 18-maydagi 139-son qaroriga
2-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan qo‘shimchalar va
o‘zgartirish**

1. Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi 482-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2003-y., 11-son, 108-modda) bilan tasdiqlangan Avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagajni tashish qoidalari 100-bandining **birinchi xatboshiga** “naqd pul bilan” so‘zlaridan keyin “yoxud hisob-kitob terminalidan foydalangan holda bank plastik kartochkalari mablag‘lari bilan” so‘zlar qo‘shilsin.

2. Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 14-iyuldagagi 138-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2006-y., 7-son, 51-modda) bilan tasdiqlangan Avtomobil transportida yo‘lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha tashish faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizomning **9-bandiga** quyidagi mazmundagi o‘n ikkinchi xatboshi qo‘shilsin:

“1) yo‘nalishsiz taksilarning texnik holati va asbob-uskunalarining yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga doir normativ-huquqiy hujjatlar talablariga, tashqi ko‘rinishiga va anjomlariga, yagona tanish belgilari bilan jihozlashga qo‘yiladigan talablarga muvofiqligi”;

o‘n ikkinchi xatboshi o‘n uchinchi xatboshi deb hisoblansin.

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-y., 20-21-son, 201-modda; 2014-y., 10-son, 105-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)